

COVID-19 ga qarshi emlanish uchun tayyorlaning! (우즈벡어)

< Emlashdan bir kun oldin >

01. COVID-19 ga qarshi emlash to'g'risida smsni tekshirish

- ⊙ Sizni ro'yhatga qo'yilganligi haqida yuborilgan smsda, vaktsina emlash vaqti va emlash joyi ya'ni manzilni tekshiring.
- ⊙ Emlash joylari zich va gavjum bo'lishi mumkin, shuning uchun jamoat transportlaridan foydalangan holda avtobus yoki metro yo'nalishini oldindan tekshiring.
- ⊙ Ertangi emlash uchun qo'lingizni yuqori qismi ko'rinadigan yengsiz kiyimni tayyotlab qo'ying.

< Emlash kuni >

02. Uydan chiqishdan oldin

- ⊙ Bugungi salomatlik holatingizni tekshiring. Agar sizda isitma bo'lsa emlash kechiktiriladi.
- ⊙ Emlash uchun yuqorida aytilganidek yengsiz kiyim kiying va albatta niqob taqing.
- ⊙ Belgilangan vaqtdan 30 daqiqa oldin kelib turishingiz lozim.

03. Emlash joyiga kelish

- ⊙ Emlash joyiga kelganingizdan so'ng, shaxsiy guvohnomangiz yoki emlash ro'yhatga qo'yilganlik haqidagi smsni ko'rsating.
- ⊙ Tana harorati tekshirilgandan keyin, emlash xonasida navbatingizni kuting.

04. Emlashdan oldin qisqacha tekshirish anketasi

- ⊙ Emlashdan oldin qisqacha tekshiruv anketani to'liq to'ldirasiz.

05. Emlashdan oldin qisqacha tekshirish(shifokor maslahati)

- ⊙ Emlashdan oldin qisqacha tekshirish bo'yicha shifokor bilan suhbat o'tkazasiz.
- ⊙ COVID-19ga qarshi emlash to'g'risida savollaringiz bo'lsa savol berasiz.

06. Emlash

- ⊙ Emlash xonasiga borib COVID-19ga qarshi emlanasiz.

07. Kuzatuv xonasida kutish

- ⊙ Emlashdan so'ng, allergik reaksiya ehtimoliga qarshi kuzatuv xonada 15-30 daqiqa kutishingiz lozim.

08. Uyga qaytish

- ⊙ Kuzatuv xonasida 15-30 daqiqa kutganingizdan so'ng iloji boricha to'g'ri uyga qayting, va og'ir jismoniy harakat qilmang.
- ⊙ Rejalashtirilgan ikkinchi emlash sanasini kalendarga belgilab qo'ying.

09. Uyda

- ⊙ Emlashdan so'ng quyidagi alomatlar tez-tez uchrab turishi mumkin. Bu immunitetni shakllantirish paytida yuzaga keladigan reaksiyalar bo'lib, ularning aksariyati 2, 3 kun ichida yo'qoladi.

Emlashdan keyin umumiy simptomlar va davolash	Tartib	Emlanilgan qo'l qismi	Butun tana
	Simptom	<ul style="list-style-type: none">• Og'riq• Shish	<ul style="list-style-type: none">• Isitma• Holsizlanish• Sovuq sirash• Bosh og'rig'i
	Birinchiyordam	<ul style="list-style-type: none">• Toza sochiqni sovuq suvda namlab, og'riq qismini kompresslash• Qo'l mashqlarini bajarish yoki harakatlanish <ul style="list-style-type: none">• Issiq tushiruvchi antipiretik va og'riq qoldiruvchi analjezik dorilarni iste'mol qilishda cheklovlar yo'q, ammo iloji boricha yallig'lanishga qarshi ta'siri bo'lmagan asetaminofen dori-darmonlarni iste'mol qilish tavsiya etiladi	<ul style="list-style-type: none">• Yetarli miqdorda suyuqlik ichib dam olish• Yengil kuyinish• Emlashdan oldin Issiq tushiruvchi og'riq qoldiruvchi dorilarni tayyorab qo'yish

- ⊙ Simptomlarning aksariyati issiq tushiruvchi antipiretik va og'riq qoldiruvchi analjezik dorilarni iste'mol qilish yo'li bilan yaxshilanadi, ammo agar emlanilgan qo'l qismida shish, og'riq, qizarish 2 kundan ortiq davom etsa, shifokorga habar bering.
- ⊙ Agar sizda nafas qisilishi, hushdan ketish, yuzning shishishi va boshqa kuchli allergik reaksiyalar(anafilaksis kabi) bo'lsa, darhol 119raqamga qo'ng'iroq qiling yoki yaqin atrofdagi tibbiy tez yordam bo'limiga boring.